



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

Ўзбекистон худудида
тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish funktsiyalari va tamoyillari	156
Xilola Nematovna Ochilova Oliy ta’lim tizimida pedagog-xodimlarni boshqarishning ahamiyati	162
Niyozxo’ja Bahroil o’g’li Yahyoxonov Samsung kompaniyasining marketing faoliyati tahlili	168
Xilola Nematovna Ochilova, Asilbek Po’lat o’g’li Ne’matov Oliy ta’lim muassasalarida pedagog-xodimlarni boshqarishning samaradorligini baholash yo’llari	173
ИНВЕСТИЦИЯ	
Musurmon Axmadovich A’zamov, Ra’no Sherali qizi Xoliqulova, Muzaffar Janobiddinovich Suyunov Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalarning o’rni va ahamiyati	177
Ozodbek Shuhrat o’g’li Jumaqulov Investitsion jozibadorlikni oshirishni iqtisodiy rivojlanishga ta’siri	181
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Nuriddin Elamonovich Ernazarov Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig’ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish	188
Bobir Xo’jaqul o’g’li Qilichov Sug’urta bozorlari va global turizmning o’zaro bog’liqligi	191
Зариф Юсупович Аминов Хизмат кўрсатувчи корхоналар иқтисодий хавфсизлиги ҳолатини баҳолашда қўлланиладиган кўрсаткичлар тизими ва уларни аниқлаш йўллари	194
То’лиқин Ismatulla o’g’li Yahyoyev Pul oqimlari harakatini moliyaviy hisob xalqaro standartlariga ko’ra aks ettirilishi	198
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Бекзод Сайдазим ўғли Бурхонов Инсон ресурслари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ва унга таъсир этувчи омиллар	202
Шахриёр Шодиёрович Тураев Адвокатлик тузилмалари адвокатга иш ҳақи тўловлари ва унинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш	206
Baxtiyor Xushvaktovich Azizkulov, Musurmon Axmadovich A’zamov, Dilafruz Asqarjon qizi Uroqova Klasterlar faoliyatini ekonometrik prognozlash	210
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Feruz Kubaymurodovna Ismoilova Ta’lim xizmatlari bozorida malakali kadrlarga bo’lgan ehtiyojni shakllantirish asoslari	215
Akram Abduraxmonovich Azizqulov, Is’haq Abduraxmonov Xizmat ko’rsatish odobi Yusuf Xos Xojib talqinida	219
Khasan Khankeldiyev, Shakhrukh Bobojanov A study on preference for either online education courses or traditional ones at turin polytechnic university in Tashkent	223
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ҳар биримиз 8,2 миллиард кишининг биримиз	227

To‘lqin Ismatulla o‘g‘li Yahyoyev – SamISI katta o‘qituvchisi

PUL OQIMLARI HARAKATINI MOLIYAVIY HISOB XALQARO STANDARTLARIGA KO‘RA AKS ETTIRILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga moliyaviy hisobotning pul oqimlari harakati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirishning alohida xususiyatlari hamda afzallik va kamchiliklari, korxonalarda operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyat bo‘yicha pul oqimlarini tanolishning alohida xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi milliy standartlari, moliyaviy hisob xalqaro standartlari, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, foyda yoki zararlar hamda boshqa umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi hisobot.

Kirish. Davlatning qaysi tarmog‘i bo‘lishidan qat’iy nazar uning rivojlanishi, ravnaq topishi ushbu tarmoqda faoliyat yurutayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining ko‘payishi hamda rivojlanishiga, korxonalarining daromadlilik, rentabellik, moliyaviy barqarorlik darajalarining yaxshilanishiga bog‘liqdir.


Korxonalarining korxonalarining daromadlilik, rentabellik, moliyaviy barqarorlik darajalarini yaxshilash bevosita korxonadagi pul oqimlarning to‘g‘ri, samarali hamda tezkor harakatiga chambarchas bog‘liqdir.

Korxonada korxonaning uzluksiz faoliyatini ta‘minlab turuvchi asosiy instrument bu pul mablag‘laridir. Inson hayotiylik davrini qon qanday saqlab tursa korxonada pul aynan ushbu vazifani bajarib berish bilan shug‘ullanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu mavzu bo‘yicha mahalliy va xorijiy adabiyot manbalari tahlili, qurilish sohasida fundamental tadqiqotlar qatorida I.S.Stepanova [1], Arens E.A. [2], DJ.K. Lobbek [3], Serov V.M. [4], Gurkov I.B [5] singari xorijiy olimlarning, M.K.Pardayev[6], N.T.Tuxliyev [7], E.V.Golesheva [8], M. Miraxmedov [9], A.A.Eshtayev [10], K.B.Urazov [11], singari mahalliy iqtisodchi olimlarning qurilish sohasidagi turli masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy-tadqiqot ishida statistik va iqtisodiy tahlil usullari, tahlil, sintez, mavhumiy-mantiqiy tahlil, shuningdek, tanlovli kuzatuv, sotsiologik so‘rov, SWOT-tahlil, qiyoslov usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Korxonada pul mablag‘lari harakati uchta faoliyat bo‘yicha guruhlariga ajratiladi.




1-rasm. Korxonaning pul oqimlari harakati guruhlanishi.

Operatsion faoliyatdan kelib chiqadigan pul oqimlarining summasi - tashkilotning qarzlarini to‘lash, o‘zining operatsion imkoniyatlarini saqlab qolish, dividendlarni to‘lash va moliyalashtirishning tashqi manbalariga murojaat qilmasdan, yangi investitsiyalar qilish uchun yetarli bo‘lgan pul oqimlarini qay darajada hosil qilganligini aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkichdir. O‘tgan davrlarda operatsion faoliyatdan kelib chiqqan pul oqimlarining alohida tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi ma‘lumot boshqa ma‘lumotlar bilan birgalikda operatsion faoliyat bo‘yicha kelgusi pul oqimlarini prognoz qilishda foydalidir. Operatsion faoliyat bo‘yicha pul oqimlari birinchi

navbatda tashkilotning asosiy daromad keltiruvchi faoliyatidan kelib chiqadi. Shuning uchun, ular odatda foyda yoki zararni aniqlashda hisobga olinadigan operatsiyalar yoki boshqa hodisalar natijasi hisoblanadi.

Uskunani sotish kabi ayrim operatsiyalar, foyda yoki zarar tarkibida tan olinadigan foyda yoki zararni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday operatsiyalarga bog‘liq pul oqimlari investitsiya faoliyatidan pul oqimlari tarzida tasniflanadi. Ammo, 16-son BHXS “Asosiy vositalar” ning 68A bandida ta’kidlanganidek, ijaraga berish va keyinchalik sotish uchun mo‘ljallangan aktivlarni ishlab chiqarish yoki harid qilish uchun amalga oshiriladigan pul mablag‘lari to‘lovi operatsion faoliyatdan pul oqimlari hisoblanadi. Bunday aktivlarni ijaraga berish va keyinchalik sotishdan pul mablag‘lari kelib tushishi ham operatsion faoliyatdan pul oqimlaridir.



2-rasm. Operatsion faoliyatdan kelib chiqadigan pul oqimlari.

Tashkilot qimmatli qog‘ozlar va qarzlarni diling yoki savdo maqsadida ushlab turishi mumkin va bunday holda ular aynan qayta sotish uchun xarid qilinadigan zaxiralarga o‘xshaydi. Shuning uchun, diling yoki savdo uchun mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlarning sotib olinishi va sotilishidan kelib chiqadigan pul oqimlari operatsion faoliyat tarzida tasniflanadi. Xuddi shu kabi, moliyaviy institutlar tomonidan beriladigan avans pul mablag‘lari va qarzarlar, odatda, bunday moliyaviy tashkilotning asosiy daromad keltiruvchi faoliyatiga tegishli bo‘lganligi sababli, operatsion faoliyat tarzida tasniflanadi.


Investitsiya faoliyatidan kelib chiqadigan pul oqimlarini alohida yoritib berish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday pul oqimlari kelgusi daromad va pul oqimlarini hosil qilish uchun mo‘ljallangan resurslarga qancha sarflar amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Faqat moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda aktiv tan olinishiga olib keladigan sarflargina investitsiya faoliyati tarzida tasniflanishi mumkin.

Investitsiya faoliyatidan kelib chiqadigan pul oqimlariga quyidagilar misol bo‘ladi:

- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni harid qilish uchun amalga oshirilgan pul mablag‘lari to‘lovi. Ushbu to‘lovlar kapitallashtiriladigan tajriba-konstruktorlik sarflari bo‘yicha va tashkilotning o‘zida yaratilgan asosiy vositalar bo‘yicha to‘lovlarni o‘z ichiga oladi;

- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan pul mablag‘lari kelib tushishi;
- boshqa tashkilotlarning ulushli yoki qarz instrumentlarini va qo‘shma korxonalaridagi ulushlarni harid qilish uchun amalga oshirilgan pul mablag‘lari to‘lovi (bundan diling va savdo uchun mo‘ljallangan instrumentlar yoki pul mablag‘lari ekvivalentlari bo‘lib hisoblanadigan instrumentlar uchun qilingan to‘lovlar mustasno);
- boshqa tashkilotlarning ulushli yoki qarz instrumentlarini va qo‘shma korxonalaridagi ulushlarni sotishdan pul mablag‘lari kelib tushishi (bundan diling va savdo uchun mo‘ljallangan instrumentlar yoki pul mablag‘lari ekvivalentlari bo‘lib hisoblanadigan instrumentlar bo‘yicha pul mablag‘lari kelib tushishi mustasno);
- boshqa tomonlarga berilgan avans pul mablag‘lari va qarzlarni (bundan moliyaviy institutlar tomonidan berilgan avans pul mablag‘lari va qarzlarni mustasno);
- boshqa tomonlarga berilgan avans pul mablag‘lari va qarzlarning qaytarilishidan pul mablag‘lari kelib tushishi (bundan moliyaviy institutlarning avans pul mablag‘lari va qarzlari mustasno);
- fyuchers shartnomalari, forvard shartnomalari, opsiyon shartnomalari va svop shartnomalari bo‘yicha pul mablag‘lari to‘lovi, bundan ushbu shartnomalar diling yoki savdo uchun mo‘ljallangan holatlar yoki to‘lovlarni moliyaviy faoliyat sifatida tasniflanadigan holatlar mustasno;
- fyuchers shartnomalari, forvard shartnomalari, opsiyon shartnomalari va svop shartnomalari bo‘yicha pul mablag‘lari kelib tushishi, bundan ushbu shartnomalar diling yoki savdo uchun mo‘ljallangan holatlar yoki pul mablag‘lari kelib tushishi moliyaviy faoliyat sifatida tasniflanadigan holatlar mustasno. Shartnoma muayyan pozitsiyani xejlash tarzida hisobga olinganda, shartnoma bo‘yicha pul oqimlari xejlangan pozitsiya bo‘yicha pul oqimlari bilan bir xil tarzda tasniflanadi.

Korxonada fyuchers shartnomalari, forvard shartnomalari, opsiyon shartnomalari va svop shartnomalari bo‘yicha pul mablag‘lari harakati investitsion faoliyat bo‘yicha pul oqimi harakatini ifodalaydi.



3-rasm. Moliyaviy faoliyatdan kelib chiqadigan pul oqimlari.

1-jadval

Fyuchers shartnomalari, forvard shartnomalari, opsiyon shartnomalari va svop shartnomalari

№	Ko‘rsatkich nomi	Izohi
1	Fyuchers shartnomalari	rejalashtirilgan kelajakda tovar yoki aktivni qat‘iy belgilangan narxda sotib olish va sotish bo‘yicha operatsiyalarni amalga

		o'shinish uchun ishlatiladi.
2	Forward shartnomalari	bu birjalardan tashqarida amalga oshiriladigan va kelajakda tovar, qimmatli qog'ozlar yoki valyutani sotib olish amalga oshirilishini nazarda tutgan holda bir martalik bitim.
3	Opsion shartnomalari	xaridor va sotuvchi o'rtasidagi shartnomalar bo'lib, keyinchalik <u>asosiy aktiv</u> yoki qimmatli qog'ozlar bo'yicha oldindan belgilangan narxda (ishlash bahosi) bitimni amalga oshirishga yordam beradi .
4	Svop shartnomalari	xorijiy valyutalarni qat'iy belgilangan qiymatda qayta sotib olish bo'yicha bank bilan kelishuv.

Moliyaviy faoliyatdan kelib chiqadigan pul oqimlarini alohida yoritib berish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu ma'lumot tashkilotni kapital bilan ta'minlovichilar tomonidan kelgusi pul oqimlariga bo'lgan talablarini prognoz qilish uchun foydalidir.

Moliyaviy hisob xalqaro standartlari bo'yicha korxonaning pul oqimlari harakati pul oqimlari harakati to'g'risidagi hisobotda aks ettirilishining alohida farqlaridan yana biri bu soliq to'lovlari bevosita qaysi faoliyatga tegishli bo'lsa ushbu faoliyat turida aks ettiriladi.

Xulosa va takliflar. Moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o'tish hamda ushbu standartlar asosida mamlakatimizda buxgalteriya hisobini yuritish mamlakat hamda tadbirkorlar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- mamlakatning istalgan tarmog' darajasini hamda ushbu tarmoqda faoliyat olib borayotgan korxonaning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini taqqoslash imkoniyati yaratiladi;
- mamlakatimizga xorijiy investorlarni jalb qilish jozibadorligi ortadi;
- barcha tarmoqlar bo'yicha xalqaro bozorga chiqish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 24-fevral, PQ-4611-son.
2. 7-son IAS "Pul oqimlari harakati to'g'risida"gi buxgalteriya hisobining xalqaro standarti.
3. 9-son BHMS "Pul oqimlari harakati to'g'risida"gi buxgalteriya hisobining milliy standarti.

<p>Т.Яхёев</p> <p>Отчет о движении денежных средств в соответствии с международными стандартами финансового учета</p> <p>Аннотация. В статье рассматриваются особенности формирования отчета о движении денежных средств в финансовой отчетности в соответствии с международными стандартами финансового учета, а также преимущества и недостатки, особенности признания денежных потоков от операционной, инвестиционной и финансовой деятельности на предприятиях.</p> <p>Ключевые слова: национальные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты финансового учета, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, отчет о финансовых результатах, отчет о прибылях и убытках и прочем совокупном доходе.</p>	<p>T.Yakhyoev</p> <p>Cash flow statement according to international financial accounting standards</p> <p>Abstract. This article discusses the specific features of the formation of a statement of cash flows in financial statements according to international financial accounting standards, as well as the advantages and disadvantages, and the specific features of recognizing cash flows in operating, investment, and financial activities at enterprises.</p> <p>Keywords: national accounting standards, international financial accounting standards, accounting, financial reporting, statement of financial results, statement of profit or loss and other comprehensive income.</p>
---	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.